



TURDI FAROG'IY SHE'RIYATIDA XALQ BIRDAMLIGI MASALASI

Sharipova Begoyim

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on
Filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turdi Farog'iy she'riyatida urug' nomlarining kelishi va adolat, totuvlik hamda shoir she'rlari mazmunining hozirgi davrdagi ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Muxammasi turk, hajv, tanqid, muxammas, g'azal, urug', birdamlik.

Kirish qism: Turdi Farog'iy XVII asrning o'zbek adabiyotida hajviy-tanqidiy yo'nalishning kuchayishida, xalqona uslubning ildiz otib borishida katta ta'sir ko'rsata olgan is'tedodli shoirdir. Uning hayoti va ijodi Ashtarxoniylar sulolasidan Nodir devonbegi, Abdulazizxon hamda Subhonqulixon hukmronlik qilgan davrlarga to'g'ri keladi. Turdi, Turdiy (asl ismi va taxallusi esa Farog'iy) (Buxoro-taxminan 1699-1700 Xo'jandda tavvallud topgan) shoir. Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Turdi ijodi hayotiy faktlarga, teran mulohazalarga boyligi va uslubning realistik xarakteri bilan o'zbek adabiyoti rivojiga samarali ta'sir qilgan. Maxmur, Gulxaniy kabi satirik shoirlar ijodining shakllanishida muhim bosqich bo'lgan bo'lgan.

1925-yilda Abdulhamid Majidiy Kattaqo'rg'onida o'tgan shoir-adiblar adabiy merosini aniqlash va o'rganish jarayonida qo'lyozma asarlar orasidan Turdi Farog'iy taxalluslari bilan bitilgan 12 g'azal, 5 muammas, 1 fardni aniqlaydi. U o'sha yillari Samarqandda chiqib turgan "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalining 1925-yil 9-10-sonlarida



“O‘zbek shoiri Turdi”: maqolasini hamda o‘zi topgan she‘rlarini e‘lon qiladi. Turdi Farog‘iyning “Muxammasi turk” asarida o‘zining biografiyasiga oid ma‘lumotlar ham uchraydi.

“Tor ko‘ngullu beklar” g‘azalida yurt va xalq taqdiri masalasi asosiy ijtimoiy mavzu sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir yashagan davrda o‘zbek urug‘arining tarixiy tarqoqligi, milliy kuchlarning parokandaligi shoirni qattiq qayg‘uga solardi. Bu qayg‘u qatralari uning she‘riyati qatlariga qattiq o‘rnashgan.

Tor ko‘ngullik beklar,man-man demang, kengllik qiling,

To‘qson ikki bo‘li o‘zbek yurtidur,tenglik qiling.

Baytda beklarga qarata “Manmanlik qilmang, fe‘lingizni kengroq qo‘yingiz”, - deydi. Xalqimizda “Keng fe‘l, ketmas davlat bersin” degan duo bor. Shoir tor ko‘ngulli beklarni keng fe‘llika da‘vat etadi. Haqiqatdan keng fe‘llik bo‘lsa, ketmas davlat o‘z-o‘zidan keladi. Turkiylar ichida shunday bo‘v bor: “O‘n ikki bo‘li boshqurt” deyдилar. O‘zbeklarda 92 urug‘ bir “Nasabnoma” bordir. Shubha yo‘qdirki, “Nasabnoma” o‘zbeklarning Oltin O‘rda zamonidagi yangi Mang‘it - No‘g‘oy va qozoqlar ayrilmasdan ilgarigi hayotiga oiddir. Bu urug‘larga ba‘zi misollar: Ming, Yuz, Qirq, Ungajit, Nayman, Qipchoq, Arg‘in, Burloq, Busloq, Chemarchin, Bo‘zay, Qatay va boshqalar. Shoir to‘qson ikki urug‘ mavjud bo‘lsada, ularning hammasini o‘zbek eli degan nom birlashtirib turibdi. Bularga teng munosabatda, adolatli bo‘lish lozimligini aytadi. O‘zbek yurtining bir-biriga qarindosh bo‘lmish to‘qson ikki urug‘ini tenglikka chaqiradi. Shoir nazdida to‘qson ikki o‘zbek urug‘ini barini barobar ko‘rish, ularning birortasini sig‘dirmaslik kabi nomaqbullik qilmay, bag‘rikenglik bilan teng tutish eng oliy vazifadek turadi.

Birni Qipchoq-u Xitoy-u, birni Yuz, Nayman demang,

Qirq-u Yuz, Ming son bo‘lib, bir xon oyinlik qiling.

Bu baytda keltirilgan nomlar turkiy urug‘larining nomlaridir. Shoir ta‘did san‘ati vositasida urug‘ nomlarining bir butun tizimini bir baytga sig‘diradi.



Shoirning “Turdiman” radifli gʻazali biografik ruhga ega ekanligi bilan boshqa gʻazallardan farqlanadi. Shoir oʻz tarjimai holi moddiy ahvoli, hayotida sodir boʻlgan qiyinchiliklarni koʻrsatib oʻtish uchun “Turdiman” radifli gʻazalining bir baytida ham turkiy urugʻlarning unumli foydalanadi. Taʼdid sanʼatidan foydalanadi.

*Qirq, Yuz, Ming aqrabolar etdilar mandin nufur,
Ne balo baxti qaro-yu toleyi shum Turdiman.*

Baytda shoir Qirq, Yuz, Ming urugʻlarining boshliqlari shoirdan yuz oʻgirmoqdalar, toleʼyining shumligini va baxtining shu qadar qaroligini taʼkidlamoqda. Turdi Farogʻiy gʻazallarida, sheʼrlarida turkiy urugʻlarning nomidan mahoratli foydalana olgan.

Xulosa oʻrnida shuni aytib oʻtishim lozimki, zamonaviy yoshlar va jamiyatimiz hayotida ham bu gʻazal muhim ahamiyatga ega. Hozir ham chekka qishloqlar aholisi orasida urugʻlarning bir-birini ajratishi, millatchillika yoʻl qoʻyishyotgani afsuski, uchrab turibdi. Hammaga adolatli boʻlish, ahillik va totuvlik doim adabiyotimiz va davrimizning asosiy muammosi boʻlib kelgan. Insonlar har doim birdamlik va “Bir yelkadan bosh chiqarib” harakat qilishga davlatimiz yanada yuksaladi. Adolat, birdamlik, ahillik, totuvlik davlatimizning yoshlarini yuksaltiruvchi katta kuchdir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar roʻyxati:

1. Rahmonqul Orzibekov. Oʻzbek adabiyot tarixi. T.: -Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2006.
2. N.Jumaxoʻja, I.Adizova .Oʻzbek adabiyot tarixi. T.: - Noshir nashriyoti, 2019.
3. Boqijon Toʻliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. Adabiyot 10-sinf 1-qism T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/oʻzbek-mumtoz-sheriyati-turdi-farogiy.html>.
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki>.